



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(Dastlabki ma'lumotlar)

Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra **4 031,3 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **83,6** ming kishiga yoki **2,1 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 483,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,8 %**), qishloq aholisi soni **2 548,1** ming kishi (**63,2 %**)ni tashkil etdi.

Erkaklar

2028,5
ming kishi

Ayollar

2002,8
ming kishi

Shahar aholisi soni

1483,2
ming kishi

Qishloq aholisi soni


2548,1
ming kishi

**Jami aholi
soni 4031,3**

Doimiy aholi sonini hisoblanishi hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi






Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati (2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2022- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km. ga kishi)



Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-dekabr, ming kishi)


	2021 -y
Tug'ilganlar	110,4
Vafot etganlar	18,8
Aholining tabiiy o'sishi	91,6
Kelganlar	9,6
Ketganlar	17,6
Migratsiya sal'dosi	-8,0
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	36,2
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	4,1
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>	
tug'ilish	27,7
o'lim	4,7
aholining tabiiy o'sishi	23,0
tuzilgan nikohlar	9,1
nikohdan ajralishlar	1,0

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2021- yil 1- yanvar holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yil 1- yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahriga to'g'ri kelib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,9 % ni tashkil etdi. Urgut 13,2 % ni, Pastdarg'om 9,1 % ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 % ni tashkil etgan.




Tug'ilganlar soni



Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 110 437 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 27,7 promilleni tashkil etib, (2020- yilning yanvar- dekabr oylarida 25,9 promille bo'lgan) tug'ilish koeffitsiyenti 2,2 promillega ko'paygan.




Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-dekabr)



Ma‘lumot uchun: Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.







Vafot etganlar soni

Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 18 808 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 62,7 % i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,6 % i – o'simtalardan, 4,8 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,2 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 8,1 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 % i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,5 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.




Tuzilgan nikohlar soni (ming birlik)






Hududlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan)




Eng yuqori nikoh koeffitsiyenti (promille), Payariq (**10,2**) Bulung'ur (**9,8**), Jomboy (**9,8**) va Qo'shrabot (**9,7**) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Samarqand shahar (**7,8**) Nurobod (**8,3**), Oqdaryo (**8,6**), va Samarqand (**8,7**) tumanlarida kuzatildi.




Nikoh. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 36 228 kishining nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,1 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti (2021 –yil, yanvar-dekabr)






Nikohdan ajrashganlar soni (ming birlik)




Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan)



Eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Samarqand shahar (1,7), Kattaqo'rg'on shahar (1,7), Samarqand (1,4), Jomboy (1,2) tumanlarida kuzatildi.


Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Urgut (0,5), Nurobod (0,5), Qo'shrabot (0,7) va Ishtixon Oqdaryo Bulung'ur Narpay Payariq (0,9) tumanlarida kuzatildi.



Nikohdan ajralishlar. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 4 141 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti


(2021 –yil, yanvar-dekabr)



Migratsiya. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 9 591 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 17 643 kishini tashkil etdi. Migratsiya sal'dosi minus 8 052 kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 14 376 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)

	2020- yil yanvar-dekabr	2021- yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	5 142	9 591
Ko'chib ketganlar	19 518	17 643
Migratsiya sa'ldosi	-14 376	-8 052





SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar kesimida aholi migratsiyasi taqsimlanishi (*kishi*)

(2021 –yil, yanvar-dekabr)

	<i>Ko'chib kelganlar</i>	<i>Ko'chib ketganlar</i>	<i>Migratsiya sa'ldosi</i>
Samarqand viloyati	9 591	17 643	-8 052
Samarqand sh.	4 918	2 695	2 223
Kattaqo'rg'on sh.	571	773	-202
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo	219	722	-503
Bulung'ur	433	1 118	-685
Jomboy	398	529	-131
Ishtixon	521	1 319	-798
Kattaqo'rg'on	452	1 369	-917
Qo'shrabot	234	1 201	-967
Narpay	225	882	-657
Payariq	195	1 564	-1 369
Pastdarg'om	248	990	-742
Paxtachi	13	1 256	-1243
Samarqand	533	871	-338
Nurobod	238	606	-368
Urgut	25	1 364	-1 339
Toyloq	368	384	-16

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Payariq (minus 1 369 kishi), Urgut (minus 1 339 kishi), Paxtachi (minus 1 243 kishi), Qo'shrabot (minus 967 kishi), Kattaqo'rg'on (minus 917 kishi), Ishtixon (minus 798 kishi) hamda Pastdarg'om (minus 742 kishi) tumanlarida kuzatildi.



**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**
(66)235-72-35